

“Munozara” turnirini olib borish bo'yicha YO'RIQNOMA

BOSH HAKAM

Debatni Bosh hakam nazorat qilib boradi.

Qoidalarini buzganlarga nisbatan jarima ballari va debatdan chetlatish jazolarini qo'llaydi.

Debat jarayonlari bo'yicha jamoalar tomonidan taqdim etilgan appelyatsiyani ko'rib chiqilishini ta'minlaydi.

TIMEKEEPER (VAQTBON)

Vaqtни nazorat qiladi hamda reglamentning aniqligini ta'minlaydi.

Notiqqa nutq tugashiga (tayyorlanishiga) 1 daqiqa qolganligini ogohlantirib turadi va nutq tugallanganligi haqida xabar beradi. Ma'lumotnomani berish vaqtini ko'rsatadi.

Debat jarayonida o'z navbati bilan 2 daqiqa qolganda oq, 1 daqiqa qolganda yashil, 30 soniya qolganda sariq, vaqt yakunlanganda qizil kartalarni ko'rsatadi.

Debat bahsi time-keeperning quyida so'zlaridan so'ng yakunlangan hisoblanadi: **“barcha jamoalarga o'yin uchun rahmat, jamoalar bir-birlarini bugungi o'yin bilan tabriklashlari mumkin”**

NOTIQ – DEBAT SPIKERI

Notiqlar debatning asosiy elementlaridan foydalanishlari shart:

- Yo'nalish.
- Mavzu.
- Keys.
- Tushunchalar.
- Falsafa.
- Argumentlar.

TASDIQLOVCHI NOTIQ (spiker) 1

Tasdiqlovchi 1-ning konstruktiv so'zga chiqishi (T1) 5 daqiqa.

1. Hamma bilan salomlashadi va o'z jamoasini (jamo nomi, jamoa a'zolarini) taqdim etadi.

2. Debatning mavzusini e'lon qilib, uni tasdiqlaydi va ahamiyatini ochib beradi.

3. Debat elementlarini taqdim etadi.

4. Argumentlarni birma-bir taqdim etadi (ATIX asosida shakllantirilgan):

Argument 1 ...

Argument 2

Argumentlarning eng kam miqdori 1 ta, eng ko'p miqdori cheklanmagan

1. Xulosa chiqarib, o'z nutqini quyidagi so'zlar bilan tamomlaydi:
"Hurmatli ekspertlar, o'z ovozingizni bizning jamoamizga berishingizni so'rayman".

(Barcha argumentlarni faqat T1 taqdim etadi).

INKOR ETUVCHI NOTIQ (spiker) 1

Inkor etuvchi 1-ning konstruktiv so'zga chiqishi (I1) 5 daqiqa.

1. Hamma bilan salomlashadi va o'z jamoasini (jamo nomi, jamoa a'zolarini) taqdim etadi.

2. Debatning mavzusini e'lon qilib, o'z pozitsiyasini e'lon qiladi.

3. Agar T-jamoasining tushunchalarining ta'riflari ma'qul kelmasa, o'z tushunchalarini taqdim etadi.

4. T jamoasining hamma argumentlarini birma-bir inkor etadi (kontrargument taqdim etadi).

5. O'z argumentlarini taqdim etadi (ATIX asosida shakllantirilgan):

Argument 1...

Argument 2... ..

6. Xulosa chiqarib, o'z nutqini quyidagi so'zlar bilan tamomlaydi:
"Hurmatli ekspertlar, o'z ovozingizni bizning jamoamizga berishingizni so'rayman".

(Barcha argumentlarni va qarama-qarshi argumentlarni I 1 taqdim etadi)

TASDIQLOVCHI NOTIQ (spiker) 2 (4 daqiqa)

1. Hamma bilan salomlashadi.

2. "rebuttal" qilib, o'z nuqtayi nazarini tiklaydi.

3. O'z argumentlarini yangi dalillar bilan mustahkamlaydi. (Yangi argumentlar kiritmaydi).

4. O'z argumentlarining ustun ekanligini ko'rsatadi.

5. Opponentlarini inkor etadi.

6. Xulosa chiqarib, o'z nutqini tamomlaydi.

INKOR ETUVCHI NOTIQ (spiker) 2 (4 daqiqa)

1. Hamma bilan salomlashadi.

2. "rebuttal" qilib, o'z nuqtayi nazarini tiklaydi.

3. O'z argumentlarini yangi dalillar bilan mustahkamlaydi. (Yangi argumentlar kiritmaydi).

4. O'z argumentlarining ustun ekanligini ko'rsatadi.

5. Opponentlarini inkor etadi.

6. Xulosa chiqarib, o'z nutqini tamomlaydi.

TASDIQLOVCHI NOTIQ (spiker) — DIXOTAMIYA

Tasdiqlovchi D ning yakuniy konstruktiv so'zga chiqishi (T D) 3 daqiqa.

1. Hamma bilan salomlashadi.

2. O'yinning natijasini chiqaradi, asosiy to'qnashuv joylarini ochib beradi. Dixotamiya qiladi.

3. Hakamlarga o'z kriteriyasi va argumentlarining ustunligini tasdiqlab beradi.

4. Opponentlarining nuqtayi nazarini inkor etadi, lekin yangi argument keltirmaydi.

5. O'z nuqtai nazar chizig'ini tugallaydi. Umumiy xulosani chiqaradi (Boshqa spikerlardan ko'ra bu so'zlarda dalillar kamroq bo'lishi kerak).

3. O'z chiqishini quyidagi so'zlar bilan tamomlaydi: "Shu sabablarga ko'ra hakamlardan o'z ovozlarini bizning jamoamizga berishini so'raymiz".

INKOR ETUVCHI NOTIQ (spiker) – DIXOTAMIYA

Inkor etuvchi D ning yakuniy konstruktiv so'zga chiqishi (I D) 3 daqiqa.

1. Hamma bilan salomlashadi.

2. O'yinning natijasini chiqaradi, asosiy to'qnashuv joylarini ochib beradi. Dixotamiya qiladi.

3. Hakamlarga o'z kriteriyasi va argumentlarining ustunligini tasdiqlab beradi.

4. Opponentlarining nuqtayi nazarini inkor etadi, lekin yangi argument keltirmaydi. T D tomonidan keltirilgan yangi dalillarni inkor etmaydi.

5. O'z nuqtayi nazariy chizig'ini tugallaydi. Umumiy xulosani chiqaradi (Boshqa spikerlardan ko'ra bu so'zlarda dalillar kamroq bo'lishi kerak).

6. O'z chiqishini quyidagi so'zlar bilan tamomlaydi: "Shu sabablarga ko'ra hakamlardan o'z ovozlarini bizning jamoamizga berishini so'raymiz"

QARAMA-QARSHI SAVOLLAR (chapparosta)

Qarama-qarshi savollar uchun har bir notiqqa uch daqiqa vaqt ajratiladi. Savollar aniq, mazmunli va mavzuga daxldor bo'lishi kerak. Savolga faqat so'roq qilinayotgan notiq javob berishi lozim. Savol yozma ravishda bo'lgan holda butun jamoa unga javob berishi mumkin. Agar uzoq vaqt davomida savolga javob bersa yoki javob cho'zilib ketsa timekeeper uni to'xtatishi mumkin. Javob beruvchi notiq shaxsiy savollarga javob bermasligi mumkin. Ajratilgan vaqtdan tashqari berilgan javob hisobga olinmaydi.

Savollar:

T1 o'z nutqini yakunlagandan so'ng I3 tomonidan;

T2 o'z nutqini yakunlagandan so'ng I1 tomonidan;

I1 o'z nutqini yakunlaganidan so'ng T3 tomonidan;

I2 o'z nutqini yakunlaganidan so'ng T1 tomonidan 3 daqiqalik reglament asosida beriladi.

EKSPERTLAR (HAKAMLAR)

Ekspertlar jamoasi xulosalarini izohlab, yakuniy fikrni bildirib g'olibni aniqlaydi (5 daqiqa). Norozilar impichment talab qilishi mumkin. Impichment ochiq ovoz berish bilan belgilanadi.

BAHS MUNOZARANING ASOSIY ELEMENTLARI

Yo'nalish – umumiy mavzu, debat bahslariga kamida 1 kun oldin berilishi lozim (Yoshlar muammolari. Xalqaro munosabatlar. OAV. Sharq va G'arb).

Mavzu – yo'nalishga tegishli, ahamiyatli, bahslasha oladigan, muvozanatlashtirilgan bo'lishi kerak. (Reklama siyosati isloh qilinishi lozim. O'qish pulli bo'lishi shart. Ekologik muammolarni yechish nufuzli yo'nalishlar safiga kiritilishi lozim).

Keys (pozitsiyaning ta'rifi) – qisqartirilgan mavzu, loyiha, ko'tarilgan muammoning yechish yo'li, mavzudan keyin beriladi; vaqt, hudud, miqyos yoki boshqa yo'llar bilan qisqartirish mumkin. (O'zbekistonda reklama siyosati o'zgartilishi lozim, faqat ikkinchi ta'lim olishi pulli bo'lishi shart.)

Tushunchalar (kalit so'zlar) – mavzu, pozitsiya, maqsad yoki argumentlarda uchraydigan so'zlarga tushuncha berish juda muhim, chunki har bir so'z bir necha ma'noga ega hamda har bir inson har qanday so'zni o'zicha talqin qiladi. (inson — bu..., reklama- ..., OAV-...). Kalit so'zlarga manba keltirilmaydi. Kalit so'zlar o'yin boshlanishidan oldin ekspertlarga va raqib jamoaga taqdim etiladi

Falsafa (Pozitsiya maqsadi) – aniq, ijobiy, maqsad, “shior”, pozitsiyaning qadr-qimmatini ochib beradi, har doim maqsadga qaytadilar. Aforizm yoki maqol tarzida bo'lishi mumkin.

Argumentlar — ATIX asosida tuziladi, loyiha va maqsadga bog'lanishi kerak.

Argumentlar yordamida hakamlarni o'z nuqtai-nazaringiz kuchliroq ekanligiga ishontirasiz. Argumentlar sust yoki kuchli bo'lishi mumkin, lekin opponentning hujumiga turib berish kerak, mantiq va hammaga ma'lum bo'lgan faktlar va ma'lumotlar yordamida qo'llab-quvvatlanadi.

— **Ariza** – talab oldinga suriladi (A: Men uydin chiqmayman.)

— **Tushuntirish** – talab tushuntiriladi (T: Bugun yomg'ir yog'adi.)

— **Isbot** – dalil va mantiq orqali isbot amalga oshiriladi

(I: “Axborotda” yomg'ir yog'ishning ehtimoli borligi haqida aytilgan edi, ko'chada shamol, osmon bulut.)

— **Xulosa** – xulosa chiqariladi argument falsafa keys (X: Shuning uchun men uydin chiqmayman).

Mustahkamlovchi dalillar argument asosiga tegishli bo'lishi va boshqa dalillarga zid kelmasligi kerak. Ekspertlar bahs yakunidan so'ng jamoalardan berilgan dalillarning manbalarini so'rab olishga haqli.

Hakamlilik bayonnomasi

Hakam (F.I.SH.)					O'tkazilgan sana va bosqich					
O'yin kodi										
Mavzu:										
Jamoalar:	Tasdiqlovchi jamoa tarkibi				Inkor etuvchi jamoa tarkibi					
	1.				1.					
	2.				2.					
	3.				3.					
Notiqlar:	Nutq mohiyati	Nutq tuzilishi	Nutq usullari	Jami:	Notiqlar:	Nutq mohiyati	Nutq tuzilishi	Nutq usullari	Jami:	
T 1					I 1					
T 2					I 2					
T 3					I 3					
qirqish chizig'i 										
Baholash me'zonlari										
Nutq mohiyati					<u>T 1</u>	<u>T 2</u>	<u>T 3</u>	<u>I 1</u>	<u>I 2</u>	<u>I 3</u>
Ma'lumotning aniqlik darajasi		3 ball								
Dalillarning mavzuga mosligi		2 ball								
Nutqning o'ziga xosligi		2 ball								
Mavzuning o'zlashtirilishi		2 ball								
Argumentlash (ATIX)		2 ball								
A		1 ball								
T		2 ball								
I		3 ball								
X		2 ball								
Dixatomiya		7 ball								
Kesishuv nuqtalari		3								
Pozitsiyaning himoyalaniishi		5								
Yo'l qo'yilgan xatolar va hurmatsizlik		-2 ball								
Savollar bilan ishlash		2 ball								
Nutqning tuzilishi					<u>T 1</u>	<u>T 2</u>	<u>T 3</u>	<u>I 1</u>	<u>I 2</u>	<u>I 3</u>
Notiqning vazifalarini bajarishi		3 ball								
Nutqning mantiqiyligi		3 ball								
Nutqning tartiblilik va aniqligi		3 ball								
Reglamentga amal qilinishi		1 ball								
Nutq usullari					<u>T 1</u>	<u>T 2</u>	<u>T 3</u>	<u>I 1</u>	<u>I 2</u>	<u>I 3</u>
Nutq madaniyati		3 ball								
O'zini tutish madaniyati		3 ball								
Takrorlanmas fikrlar		+2 ball								
Yakuniy ballar		39/46 ballgacha								
Tasdiqlovchi jamoaning eng yaxshi notig'i				Inkor etuvchi jamoaning eng yaxshi notig'i						
G'olib jamoa										
O'yin kodi										

